



O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON PULLAR BILAN ISHLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Xolmatov Jahongir Ne‘matjon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi bank moliya
akademiyasi tinglovchisi
Tel: 93 221-86-66
Email: jahongirxl1999@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron pullarning aylanmasi, uning kamchiliklari, yutuqlari va kelajakka qaratilgan imkoniyatlari, shu tizim orqali naqd pulsiz hisob kitoblarning o‘tishi, banklararo hisob-kitoblarning o‘tish texnologiyalari, yagona vakillik hisobvaraqlari orqali to‘lovlarning o‘tishini tashkil etilishi samaradorligini oshirish tahlili ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: elektron pullar, elektron hamyon, emitent, ayirboshlash operatsiyalari, bank kartalari, to‘lov, pul-kredit siyosati.

Abstract: In this article, the circulation of electronic money, its shortcomings, achievements and opportunities for the future, the transfer of non-cash settlement books through this system, the technology for transferring interbank settlements, the analysis of increasing the efficiency of organizing transfers, payments through single representative accounts are analyzed, will be considered.

Key words: electronic money, electronic wallet, issuer, exchange operations, bank cards, payment, monetary policy.

Аннотация: В данной статье обращение электронных денег, его недостатки, достижения и возможности на будущее, перевод безналичных расчетных книг через данную систему, технологии перевода межбанковских расчетов, анализ повышения эффективности организации перевода анализируются платежи через единые представительские счета, будут рассмотрены.

Ключевые слова: электронные деньги, электронный кошелек, эмитент, обменные операции, банковские карты, оплата, денежная политика.

KIRISH

Mamlakatda so‘nggi yillarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, tijorat banklari xizmat turlarining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan katta ishlar olib borilmokda. Xususan, Prezidentimizning «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»¹ (PF-5349-son) Farmoni, «O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»² (PQ-4699-son) Qarori bu borada bank tizimi oldiga qator vazifalarni bajarishni keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi elektron pullar muomalasini, jumladan, elektron pullarni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5349-son Farmoni, 19.02.2018 yil.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4699-son qarori, 28.04.2020 yil.



chiqarish, foydalanish va ularni qoplash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatning huquqiy asosini yaratib berdi. Ushbu qonun asosida "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" ishlab chiqilib, Adliya vazirligida 2020-yil 29-aprelda 3231-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Ushbu hujjat jahon tajribasiga tayangan holda, elektron pullar tizimi faoliyatini tashkil etish, elektron pullar muomalasi, elektron pullar tizimida risklarni boshqarish hamda tizimda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

To'lov tizimlari turli shakllarda tashkil etiladi, lekin ularning maqsadi doimo bitta, ya'ni aholiga va xo'jalik sub'ektlariga o'z pul mablag'larini bir bankdagi hisobvaraqdan boshqa bank hisobvarag'iga tez o'tkazib berishni ta'minlashdir. To'lovchi va to'lovni oluvchi uchun muqobil yo'l bo'lib naqd pul orqali hisob-kitob qilish yoki barter bo'lishi mumkin. Lekin bunday hisob-kitoblar ko'p hollarda cheklangan bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Elektron pullar va elektron to'lovlar tizimini mamlakatda imkon boricha oson va tushunarli holda tatbiq etish nafaqat tijorat banklari istiqbolini ta'minlaydi, balki butun iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buni amalga oshirish uchun oldimizda turgan vazifalar va qiyinchiliklarni samarali va belgilangan muddatlarda hal etilishi lozim. Quyida bir qator tadqiqotchilarning elektron pullar, elektron to'lovlar va pul-kredit siyosati borasidagi fikrlarini tahlil qilamiz.

Review.uz nashrida ko'rsatilishicha: "Elektron pullarni jismoniy shaxsga va elektron pullar tizimining agentiga realizatsiya qilish elektron pullar tizimi tomonidan har bir elektron pullar egasi uchun shakllantiriladigan elektron hamyonga emitentdan sotib olingan elektron pullarni kirim qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Emitent yoki operator bilan tuzilgan shartnoma asosida elektron pullar tizimining agenti elektron hamyonga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga ushbu pullarni realizatsiya qilish yoki ularni qoplash maqsadida elektron pullarning nominal qiymati bo'yicha uning egasi bo'lgan jismoniy shaxsdan sotib olishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi hududida emitent tomonidan chiqariladigan elektron pullar faqat milliy valyutada nominallashtirilgan bo'lishi shart³.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining xabariga ko'ra: - "O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi elektron pullar muomalasini, jumladan, elektron pullarni chiqarish, foydalanish va ularni qoplash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatning huquqiy asosini yaratib berdi.

Ushbu qonun asosida "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" ishlab chiqilib, Adliya vazirligida 2020 yil 29 aprelda 3231-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Mazkur hujjat jahon tajribasiga tayangan holda, elektron pullar tizimi faoliyatini tashkil etish, elektron pullar muomalasi, elektron pullar tizimida risklarni boshqarish hamda tizimda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqildi.

Unda elektron pullar tizimiga oid asosiy tushunchalar, shu jumladan, "ayirboshlash operatsiyasi", "bir va ko'p emitentli elektron pullar tizimi", "oldindan to'langan karta",


³ <https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-elektron-pullardan-foydalanish-tartibi-belgilandi>.



“elektron pullar tizimining agenti”, “elektron hamyon” va sohaga oid boshqa terminlarga batafsil tushuntirishlar berilgan⁴”.

1-rasm. Elektron pul tizimi sub’ektlari

Elektron pullar tizimining sub’ektlari



Qoidaga ko‘ra, emitent, operator, elektron pullar tizimining agenti, elektron pullar egasi, shuningdek, emitent bilan shartnoma tuzgan banklar, to‘lov tashkilotlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) yuridik shaxslar elektron pullar tizimining sub’ektlari hisoblanadi (1-rasm).

Journalist Oleg Zamanov tadqiqotlariga ko‘ra: “Elektron pullar faqat milliy valyuta - so‘mda nominallashtirilgan bo‘lishi kerak. Markaziy bank va banklar (emitentlar) ularni ularning nominal qiymatiga teng bo‘lgan pul mablag‘lari summasiga almashtirishga chiqaradi. Jismoniy va yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va elektron pullar tizimi agentlari elektron pullarning egalari bo‘lishi mumkin. Jismoniy shaxslar elektron pullarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emitentdan yoki elektron pullar tizimining operatori yoxud agenti orqali oladilar.

Tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan va elektron pullar tizimining ishlashini ta‘minlaydigan bank yoki boshqa tashkilot elektron pullar tizimining operatori bo‘lishi mumkin. Operator elektron pullar emitenti bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq tizimning faoliyat ko‘rsatish qoidalarini belgilaydi. Emitent va operator elektron pullarga ruxsatsiz ega bo‘lish va (yoki) ulardan ruxsatsiz foydalanganlik, shuningdek emitentning dasturiy ta‘minoti ishidagi yoxud tizimning faoliyat ko‘rsatishidagi xatolar yoki uzilishlar oqibatida elektron pullar egasiga yetkazilgan zarar uchun uning egasi oldida javobgar bo‘ladi⁵”.

⁴ https://cbu.uz/uz/press_center/news/268796/

⁵ https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi_elektron_pullar_chiqarish_foydalanish_qoplash, 2019.



Tadqiqot metodologiyasi:

Mazkur maqolada O'zbekistonda elektron pullar va to'lovlar tizimini joriy etishda amalga oshirilayotgan keng – ko'lamli amaliy ishlar tahlil qilingan. Mazkur tahlil jarayonini yanada tushunarli va aniq bo'lishi uchun maqolada chizmalar va jadvallar usulidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi:

Qoidaga ko'ra, emitent, operator, elektron pullar tizimining agenti, elektron pullar egasi, shuningdek, emitent bilan shartnoma tuzgan banklar, to'lov tashkilotlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar elektron pullar tizimining sub'ektlari hisoblanadi. Bunda elektron pullar tizimining ishlashini ta'minlaydigan bank va tegishli litsenziyaga ega bo'lgan to'lov tashkiloti –elektron pullar tizimining operatori hisoblanadi. Emitent yoki emitent bo'lmagan boshqa bank operator bilan tuzilgan shartnoma asosida elektron pullar tizimining hisobkitob banki sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Ta'kidlash joizki, emitent o'z faoliyatini boshlashi uchun, eng avvalo, elektron pullarni chiqarish va realizatsiya qilishi to'g'risida Markaziy bankka belgilangan shakldagi xabarnoma va unga ilova sifatida operator bilan tuzilgan shartnoma hamda elektron pullar tizimi sub'ektlari bilan tuziladigan shartnomalar namunalarini yuborishi zarur hisoblanadi.

Elektron pullarning subyektlari quyidagilar hisoblanadi:

1. elektron pullar tizimi operatori;
2. elektron pullar emitenti;
3. hisob-kitob banki;
4. jismoniy shaxslar;
5. yuridik shaxslar (merchant) va yakka tartibdagi tadbirkor⁶.

Elektron to'lov tizimlari ishlash prinsipi va xalqaro to'lov tizimlari xususida to'xtalib o'tsak, to'lov tizimi bu moliyaviy sheriklar: banklar, muassasalar, do'konlar va boshqalar o'rtasidagi bitimlar va hisob- kitoblarni almashish tizimidir. Keng ma'noda, bu xaridor va sotuvchi o'rtasidagi vositachilar. To'lov tizimining funksiyalari bank kartalari yordamida pul mablag'larining barqaror aylanishidan iborat. Plastik karta bilan to'lovni amalga oshirayotganda, maxsus terminal xaridorning pul mablag'larini o'z bankiga o'tkazish to'g'risida so'rov yuboradi va u erdan kerakli miqdorni sotuvchining hisobiga o'tkazadi. Barcha hisob-kitoblar real vaqt rejimida amalga oshiriladi va 10 soniyadan oshmaydi. Davlat ichida, kredit muassasasi ichida va davlatlar o'rtasidagi pul muomalasini boshqaruvchi ko'plab to'lov tizimlari mavjud. Internetorqali to'lovlarni amalga oshirish uchun elektron to'lov tizimlari ham mavjud. Xalqaro to'lov tizimlari barcha mamlakatlardagi moliyaviy aylanmalarga kirishni ta'minlaydi, bu sizga hududlar va hududlarni hisobga olmagan holda xaridlar va xizmatlar uchun haq to'lashga imkon beradi. Bu to'lov tizimining eng xavfsiz turi. Eng zamonaviy kompyuter texnologiyalari doimiy ravishda yangilanib turadigan va firibgar hujumlarga qarshi turishga yordam beradigan va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligining yuqori darajasini ta'minlaydigan xalqaro tizimlarga xizmat ko'rsatish uchun ishlatiladi.

⁶ <https://uncitral.un.org/en/texts/payments>



Markaziy bank to'lov tizimlarining ishlashi ustidan nazoratni amalga oshirishda quyidagilarni amalga oshiradi:

- to'lov tizimlari operatorlaridan va to'lov tashkilotlaridan to'lov tizimlarining ishlashi bilan bog'liq axborotni, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotni so'rab oladi;

- to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari tomonidan to'lov tizimlarining ishlashi to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etish shakllari va muddatlarini, shuningdek hisobotlarni tuzish uslubiyotini belgilaydi;

- to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari tomonidan to'lov tizimlarining ishlashi to'g'risida taqdim etilgan axborotni tahlil qiladi;

- to'lov tizimlari operatorlarining va to'lov tashkilotlarining faoliyatini inspeksiya tekshiruvlaridan o'tkazadi.

To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilgan taqdirda to'lov tizimlarining operatorlariga va to'lov tashkilotlariga nisbatan choralar hamda sanksiyalar qo'llaydi.

O'zbekistonda elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalarining ayrim jihatlari:

- Elektron pullar - elektron hamyon shaklida yoki oldindan to'langan karta (prepaid card) ko'rinishida emitent, operator yoki elektron pullar tizimining agenti tomonidan foydalanuvchiga beriladi;

- O'zbekiston hududida emitent tomonidan chiqariladigan elektron pullar faqat milliy valyuta - so'mda nominallashtirilgan bo'lishi shart;

- O'zbekiston hududida realizatsiya qilingan tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishda faqat Respublika hududida chiqarilgan elektron pullar qabul qilinadi;

- Xorijiy emitent tomonidan chiqarilgan, chet el valyutasida nominallashtirilgan elektron pullarni ayirboshlash operatsiyalari mazkur sub'ekt bilan shartnomasi mavjud bo'lgan o'zbekistonlik emitent tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

To'lov tizimining funktsiyalari bank kartalari yordamida pul mablag'larining barqaror aylanishidan iborat. Plastik karta bilan to'lovni amalga oshirayotganda, maxsus terminal xaridorning pul mablag'larini o'z bankiga o'tkazish to'g'risida so'rov yuboradi va u erdan kerakli miqdorni sotuvchining hisobiga o'tkazadi. Barcha hisob-kitoblar real vaqt rejimida amalga oshiriladi va 10 soniyadan oshmaydi. Davlat ichida, kredit muassasasi ichida va davlatlar o'rtasidagi pul muomalasini boshqaruvchi ko'plab to'lov tizimlari mavjud. Internet orqali to'lovlarni amalga oshirish uchun elektron to'lov tizimlari ham mavjud.

Xalqaro to'lov tizimlari barcha mamlakatlardagi moliyaviy aylanmalarga kirishni ta'minlaydi, bu fuqarolarga hududlar va hududlarni hisobga olmagan holda xaridlar va xizmatlar uchun haq to'lashga imkon beradi. Bu to'lov tizimining eng xavfsiz turi. Eng zamonaviy kompyuter texnologiyalari doimiy ravishda yangilanib turadigan va firibgar hujumlarga qarshi turishga yordam beradigan va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligining yuqori darajasini ta'minlaydigan xalqaro tizimlarga xizmat ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Tarmoq ichidagi pul oqimlarini o'tkazish uchun yaratilgan to'lov tizimlari maxsus texnologiyalarning an'anaviy tizimlaridan farq qiladi. Ikkala xalqaro to'lov tizimlarining haqiqiy kartalariga bog'langan to'lov tizimlari va virtual kartalardan foydalanadigan tizimlar



mavjud. Onlayn tizimlarning ishlash printsipi odatdagilarga o'xshaydi - har bir ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi hisob oladi - mablag'ni saqlash yoki xaridlarni to'lash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan elektron hamyon.

Elektron to'lov tizimlaridan foydalangan holda, kishi quyidagi imtiyozlarga ega bo'ladi:

- Tovarlarni sotib olish va boshqa operatsiyalarning tezkorligi;
- Haqiqiy do'konlarga nisbatan kam komissiya;
- Elektron hamyonni ochish qulayligi;
- Daromad va xarajatlarning to'liq nazorati.

Yuridik nuqtayi nazaridan elektron pullarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, muomala jarayonida emitent tomonidan beruvchiga to'lovni elektron shaklda berish jarayonida pul olgandan keyin ham qabul qilingan majburiyatlar miqdoridan kam bo'lmagan miqdorda va qarz ko'rinishidagi elektron shakldagi to'lovdur. Elektron pullarning muomalasi emitentga da'vo huquqini berish yo'li bilan amalga oshiriladi va elektron pullar emitent tomonidan taqdim etilgan hajmda to'lov majburiyatlarini bajarish zaruriyatini vujudga keltiradi. To'lov majburiyatlarini hisobga olish maxsus qurilmada elektron shaklda amalga oshiriladi. Zamonaviy to'lov tizimini huquqiy jihatdan kafolatlash va himoyasini ta'minlash yuzasidan elektron hamyonni emitent tomonidan bloklash tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular elektron hamyonni yo'qotish, o'g'irlash yoki ruxsatsiz foydalanish to'g'risida elektron pul egasidan xabarnoma olgandan keyin; elektron pul egasi tomonidan elektron pulni chiqarish, undan foydalanish va qaytarish to'g'risidagi bitim shartlari buzilgan taqdirda; shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda amalga oshiriladi va mulkdor mulkini huquqiy himoyasini ta'minlaydi.

Umuman olganda, mamlakatimizda to'lov xizmatlari bozorini kengaytirish orqali elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tovarlar (xizmatlar)ni internet tarmog'i orqali realizatsiya qilish bo'yicha zamonaviy mexanizm va tartib-taomillarni joriy qilish, mahalliy tadbirkorlik sub'ektlarining tovarlari va xizmatlarini sotish geografiyasini kengaytirish va hajmini oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, to'lov xizmatlari bozorida zamonaviy to'lov imkoniyatlarini shakllantirish orqali elektron pullar tizimining sub'ektlari hisoblangan jismoniy shaxslar va tadbirkorlik sub'ektlari uchun xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar hozirlanadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi norezidenti bilan shartnoma imzolagan emitent tomonidan mazkur norezidentning chet el valyutasida nominallashtirilgan elektron pullarini ayirboshlash operatsiyalarining amalga oshirilishi natijasida mahalliy elektron pul tizimlarining xorijiy elektron pul tizimlariga integratsiya qilinishiga shart-sharoit yaratiladi.

Bir so'z bilan aytganda, elektron pullar tizimining yaratilishi va joriy etilishi innovatsion tizimli jarayon bo'lib, hisob-kitoblarni amalga oshirishda zamonaviy IT va texnologik echimlarga asoslangan holda to'lovlarni tezkor va qulay usulda amalga oshirish imkonini beradi. Bunda aynan "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Bugungi kunda O'zbekistonda elektron to'lov tizimlari joriy etish va takomillashtirish izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Internet orqali xizmatlar yoki tovarlar uchun to'lovlarni amalga oshirish har bir fuqaro uchun samarali qulayliklarini namoyon etmoqda. Bugungi



texnologiyalar asri elektron hamyonlar va elektron pullar bilan ishlashning mutlaqo normal, hatto kundalik va bizning yangi haqiqatimizga aylantirdi.

Elektron pullarning asosiy afzalliklaridan biri, bank hisobvarag'ini ochmasdan turib to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi va tezkor tizimning yo'lga qo'yilganligidadir. Shu bilan birga to'lovlarni amalga oshirayotgan paytda vositachilik haqining boshqa to'lov vositalariga qaraganda arzonligi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Mirziyoyev "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida", T.:O'RQ-578, 01.11.2019
2. Ахмедов, Б. А. (2020). О развитии навыков интерактивных онлайнкурсов в дистанционных условиях современного общества (модельпрограмма для преподавателей образовательных учреждений). Universum: технические науки, 12 (81), 11-14.
3. <https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-elektron-pullardan-foydalanish-tartibi-belgilandi>.
4. https://cbu.uz/uz/press_center/news/268796/.
5. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/elektron_pullar_chiqarish_foydalanish_qoplash, 2019.
6. <https://uncitral.un.org/en/texts/payments>